

Shaxruz SHADIYEV

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

TRANSPORT TIZIMINI BAHOLASHDA BOSHQARUV SAMARADORLIGI

Annotatsiya: Mazkur maqolada transport tizimini boshqarish samaradorligi uning faoliyat yuritishi va rivojlanishining sifat jihatidan yuk tashishni tizimini kengaytirishga oid fikrlar yoritilgan. O'zbekiston transport tizimini temir yo'l orqali temir yo'l transportini rivojlantirishni bo'yicha amaliy takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: transport tizimi, logistika, raqamli texnologiyalar, yuk tashish, transport xizmatlari.

MANAGEMENT EFFICIENCY IN TRANSPORTATION SYSTEM ASSESSMENT

Abstract: This article highlights the efficiency of transport system management, the quality of its functioning and development, as well as ideas related to the expansion of the freight transportation system. Practical proposals for the development of railway transport of the transport system of Uzbekistan by rail are presented.

Key words: transport system, logistics, digital technologies, cargo transportation, transport services.

Kirish

Mamlakatlararo transport aloqalarida o'zaro bir-birini bog'lovchi transport koridorlarining mavjudligi muhim omil hisoblansa, aloqalarning rivoji esa tranzit va xalqaro tashuvlarni amalga oshirishning samarali mexanizmini yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq. Lekin bugungi kunda mazkur munosabatlarni tartibga solish yuzasidan xalqaro amaliyotda hamda ilmiy doiralarda turlicha talqinlarning mavjudligi ularni eng avvalo to'g'ri interpretasiya qilish hamda tegishli ilmiy xulosalar chiqarish lozimligini belgilaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot sohalarining transport sohasi tomonidan tashilgan yuklari hajmi tahlil qilinib, transport turlari o'rtasida kuchayib borayotgan raqobatni hisobga olgan holda temir yo'l transportining boshqa transport turlariga nisbatan uning raqobatli imkoniyatlari, texnik foydalanish va iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uning afzallik va kamchiliklari tasniflandi, integrasiyalashgan transport tizimini samarali boshqarish bo'yicha vazifalari ko'rsatib berildi. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi rivojlanish indeksleri

bo'yicha mamlakat transport tarmog'i reytingini dunyo miqyosida yuqori pog'onaga ko'tarishga xizmat qiladi.

Mamlakat transport tizimi ham o'ziga xos tizim hisoblanib, tizimning faol hamda nafaol elementlari mavjud, qolaversa davrlar osha ushbu tizim faoliyati yomonlashib borayotganligini ko'rish mumkin (keyingi paragraflarda buning isboti keltiriladi).

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, iqtisodiyotga oid adabiyotlarda samaradorlik deganda amalga oshirilgan sarflar va olingan natijalarning taqqoslanishi tushuniladi. Bunday nuqtai nazarni bu sohada ko'plab tadqiqotchilar ko'zda tutadilar, biroq ularning ishlarida "natija" va "sarflar" tushunchasiga nimalarni kiritish to'g'risida bir qator farqlar mavjud[1].

Rossiyalik taniqli olim A.V. Pikulkin fikricha iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dastur va tadbirlarning samaradorligi olingan iqtisodiy samaraning bu samarani olishga sabab bo'lgan omillar, resurslarga nisbati bilan tavsiflanadi[2].

Ya.N. Kornaya esa iqtisodiy samaradorlik xo'jalik faoliyati natijalari va mehnat harajatlari o'rtasidagi nisbatni belgilaydi deb hisoblaydi[3].

Ye.G. Yasin samaradorlikni nafaqat iqtisodiy natijalar, balki unga erishish uchun ketgan jami sarflarning nisbati bilan belgilaydi[4].

L.G. Aganbegyan samaradorlikka nisbatan o'z qarashiga ega bo'lib, uning ta'kidlashicha, samaradorlik –bu, birinchi navbatda, ko'zlangan maqsadlarga erishish darajasini aks ettiruvchi boshqaruv harakteridagi jarayonlar va ta'sirlarning tavsifi bo'lib, samaradorlik shuning uchun ham faqat maqsadga yo'naltirilgan o'zaro aloqalarga ega[5].

Nemis iqtisodchisi P.Xeyne iqtisodiy samaradorlikni sub'ektiv kategoriya sifatida ifodalab, uni baholovchi deb hisoblaydi va garchi iqtisodiy samaradorlikka chiqish qiymatining kirish qiymatiga nisbati, ya'ni natijaviy qiymatning sarflar qiymatiga nisbati mavjudligini ko'rsatsa-da, uni natija qiymatining sarflar qiymatiga nisbati bilan bog'laydi[6].

Ya.V.Rudman "boshqarish samaradorligi"ni boshqaruv faoliyatining yakuniy natijasiga qo'shgan hissasini aks ettirgan iqtisodiy kategoriya deb baholaydi[7] I.V.Kovrijnix boshqarish samaradorligi boshqarish natija-lari va boshqarish jarayoniga sarflangan resurslarni solishtirish yo'li bilan aniqlanadi deb qayd etadi[8]

Iqtisodiyotda mazkur tushunchalarning mohiyatini anglash va ularni to'g'ri ifodalash, bir-biridan farqli jihatlarini anglay olish uchun mazkur tushunchalarga to'g'ri izoh berish lozimligini bildiradi. Shuning uchun, avvalo«ishlab chiqarish samaradorligi» tushunchasi bilan «ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligi» tushunchalarini farqlay olish lozim.

Mazkur yondashuvlarda boshqarish samaradorligi–boshqarish faoliyati

sifatida baholashda korxona faoliyatining butun boshli ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy, innovasion-investitsion faoliyati yakuniy tavsifla-rining majmui tarzida ko‘rib chiqiladi. Boshqarish xarajatlari boshqarish apparatini saqlash, texnik vositalar ekspluatatsiyasi, rahbar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning joriy xarajatlari, shuningdek boshqarish tizimlarini tashkil etish va takomillashtirish sohasidagi tadqiqotchilik va loyiha ishlari uchun davr xarajatlari, hisoblash texnikasi va boshqarishda qo‘llaniladigan boshqa texnik vositalarni xarid qilish uchun qilingan sarf-xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi[9].

Boshqarish samaradorligini aniqlash mexanizmining murakkabligiga qaramay, ayrim mualliflar (xususan, G.V.Kovalishina va M.G.Krilov) “... ko‘rsatilgan sxema bo‘yicha boshqarish tizimining samaradorligini baholash imkoniyati mavjud deyilgan qoidaning o‘zi bir muncha munozarali masala bo‘lib ko‘rinadi. Chunki boshqarish, bu – birinchi navbatda, vazifa, maqsadnibelgilash, tashkil etish, kommunikasiyalarni yo‘lga qo‘yishdan iborat” deb fikr bildiradilar[10].

J.Fayzullayevning fikriga ko‘ra, “transport operatsiyalarini amalga oshirayotgan korxonaning asosiy vazifalariga bog‘liq holda yuklarni yetkazib berishda maqbul transport turlari tanlab olinadi va bunda transport turlarining xarajatlari va boshqarish ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda ulardan ratsional texnik-iqtisodiy imkoniyati va kamchilik jihatlari inobatga olinadi”[11].

Boshqarish faoliyati korxona ishlab chiqarish faoliyatining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladigan va ularningamalgaoshirilishiga ko‘maklashadigan funksiyalarningbajarilishi, boshqaruv qarorlari sifati,foydalanilgan resurslar hajmi va ulardan olinadigan foyda darajasini belgilab beradi.

O‘zbekistonlik olimlarning fikriga ko‘ra, «boshqaruv faoliyati samaradorligi – bu, murakkab va har jatdan ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanadi»[12]. Samaradorlikning mohiyati faoliyatning natijaviyligini baholovchi kategoriya hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, u ishlab chiqarish xarajatlari bilan taqqoslaganda qo‘yilgan maqsadga erishish demakdir. «Samara» universal tushuncha. U inson faoliyatining barcha sohalarida – iqtisodiyotda, fan va texnikani rivojlantirishda, siyosat va ma’naviyatda qo‘llaniladi[13].

Tahlil va natijalar muhokamasi

Boshqaruvning zamonaviy konsepsiyasi hisoblangan tizimli yondashuvi o‘zaro aloqador unsurlarning umumiy majmuasi, o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatuvchi ob’ektlarning umumlashmasi, mohiyat va munosabatlarning birlashmasi bo‘lib, shuningdek, ob’ektni tizim sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutadi.

Demak, transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirishda menejmentning tizimli yondashuvi konsepsiyasidan foydalanish ijobiy natijaga erishishda ko‘maklashadi.

Keng ko‘lamdagi xizmatlarni ko‘rsatadigan transport tizimi uchun daromadni aniqlash va alohida xizmatlar majmuasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha to‘xtab qolishlarni bartaraf etish borasida qator muammolar mavjud. Shu sababdan, ushbu metodikada transportning har bir turi uchun alohida transport (T) va logistik (L) xizmatlarni guruhlariga ajratish tavsiya etiladi (1-jadval).

1-jadval

Transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirishda baholash uslubi va ko‘rsatkichlar tizimining o‘zaro bog‘liqligi[14]

Transport turi	Xizmat turlari	Daromadlar	
Temir yo‘l transporti	Yuk tashish	Temir yo‘l transportining yuk tashishdan daromadi (t/yu)	T
	Yo‘lovchilar, bagaj, yukli bagaj, pochta tashish	Temir yo‘l transportining yo‘lovchi tashishdan daromadi (t/y)	
	Logistik xizmatlar	Temir yo‘l transportining logistik xizmat ko‘rsatishdan olingan daromadi (t/l)	L
Avtomobil transporti	Yuk tashish	Avtomobil transportining yuk tashishdan olingan daromadi (Dayu)	T
	Yo‘lovchi tashish	Avtomobil transportining yo‘lovchi tashishdan olingan daromadi (Day)	
	Yo‘l yoqasi bo‘ylab xizmatlar	Yo‘l yoqasi bo‘ylab ko‘rsatilgan xizmatlar daromadi (Dayx)	
	Logistik xizmatlar	Avtomobil transportining logistika xizmati ko‘rsatishdan olingan daromadi (Dal)	L
Sinergetik samara	Zaxira darajasini qisqartirish orqali omborxonalar qurilishi uchun xarajatlarni iqtisod qilish	Omborxonalar qurilishi uchun xarajatlarni iqtisod qilishdan olingan qo‘shimcha daromad (S1)	S
	Saqlash va zaxiralarni ro‘yxatga olishni kamaytirish orqali iqtisod qilish	Zaxiralarni ro‘yxatga olishni kamaytirish orqali iqtisod qilishdan olingan qo‘shimcha daromad (S2)	
	Yuklash va tushirish amaliyotlari hajmini qisqartirish hisobidan olinadigan samara	Yuklash va tushirish amaliyotlari hajmini qisqartirishdan olingan qo‘shimcha daromad (S3)	
	Yuklarni tashish va saqlashga ketadigan vaqtni qisqartirish hisobidan olinadigan samara	Yuklar yo‘qotilishini qisqartirish hisobidan olinadigan qo‘shimcha daromad (S4)	

	Harakatdagi tarkibning sur'atini oshirish hisobidan tashishning qo'shimcha hajmlariga ega bo'lish natijasida olingan daromad	Tashishning qo'shimcha hajmlariga ega bo'lish natijasida olingan qo'shimcha daromad (S5)	
	Moddiy oqimni kuzatish axboroti hisobidan harakatdagi tarkibning qo'shimcha tarzda turib qolishini barataraf etishdan olinadigan samara	Turib qolishlarni bartaraf etish hisobidan olingan qo'shimcha daromad (S6)	

Mexanizmning dastlabki elementi bo'lib, boshqaruv maqsadi hisoblanadi. Maqsadni aniqlab olish – boshqaruvchi qarorlarni ishlab chiqish va ularni qabul qilishda eng asosiy bosqich bo'lib, chunki u tizim rivojlanishining strategik va taktik yo'nalishlarini belgilab beradi. Muallif tomonidan taklif etilayotgan integrasiyalashgan transport-logistika tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirishdan maqsad – transport korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlash uchun transport-logistika xizmatlari sifati, tashkil etishga ketadigan xarajatlar va yetkazib berish vaqtini minimallashtirish, shu bilan birga tizimning boshqaruv samaradorligini oshirishdan iborat.

Konsepsiyaning metodologik asosini transport xizmatlarini boshqarishda lozim bo'lgan tamoyillar tashkil etadi. An'anaviy tarzda quyidagi fikr qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra tamoyil (prinsip) – bu boshqarish jarayonini amalga oshiradigan asosiy qoida yoki cheklov hisoblanadi. Tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha iqtisodiy adabiyotlar tahlili ko'rsatishicha, ko'pincha boshqarish tamoyillari ostida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar xossalari tushuniladi.

Ma'lumki, menejment fanining muhim ilmiy maktablaridan biri «Ilmiy boshqaruv maktabi» vakillari ilk bor menejmentning rejalashtirish funksiyalaridan tahlil funksiyasini ajratgan[15]. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mintaqaviy transport tizimini boshqarish tuzilmasining asosiy funksiyalaridan biri – sohani monitoring qilish va undagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va tegishli choralarni ko'rish bo'yicha uslubiy vaamaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat hisoblanadi. Monitoring tizimi esa mavjud o'rnatilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi va unda transport tizimining muhim elementlari alohida tagtizim sifatida o'rganilishi lozim.

Umuman, mazkur magistrlik dissertasiyasidamamlakat transport tizimi, tranzit va transport koridorlari haqida to'xtalganda, quruqlik orqali o'tuvchi transport turlari, xususan avtomobil va temir yo'l transporti nazarda tutiladi.

Transport tarmog'ida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy tizimni qayta tuzish jarayoni hamda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda ro'y bergan o'zgarishlar boshqaruv ustuvorliklari va usullarini tubdan o'zgartirib yubordi. Shuning uchun yagona transport tizimini boshqaruv mexanizmini takomillashtiri

yoʻnalishlarini aniqlash va ularning jamiyat manfaatlari doirasidagi boshqarish vositalarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Yagona transport tizimini boshqarish mexanizmiga taʼsir etuvchi omillarni eʼtiborga olgan holda tizimli tadqiq etish lozim deb hisoblaymiz.

Transport tizimini samarali boshqarish – bu xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning daromad olishini transport bilan taʼminlash jarayonida transport vositalaridan rasional foydalanishga qaratilgan funksiyalar va boshqarish vositalaridan unumli foydalanishdir. Transport menejmenti tuzilmasi oʻz ichiga transport marketingi, transport korxonasi moliyasini boshqarish, transport jarayonlarini boshqarish, transport korxonasi ishchi-xizmatchilarini boshqarish kabilarni oladi.

Shunday qilib, maqsadli yondashuvga koʻra, transport tizimini boshqarish samaradorligi uning faoliyat yuritishi va rivojlanishining sifat jihatidan aniq belgilangan va miqdor nuqtai nazaridan ifodalangan taktik va strategik maqsadlariga erishish imkoniyati bilan tavsiflanadi.

Transport tizimi boshqarish mexanizmini zamonaviy menejment konsepsiyalari va tamoyillari, boshqaruv xarajatlarining aniq hisob-kitob tizimini shakllantirish, yuk tashish jarayonini tashkil etishda qoʻllaniladigan iqtisodiy dastak va turtkilarni yaxshi bilgan holda, har qanday vaziyatda kerakli boshqaruv usullarini qoʻllay olgandagina boshqaruv faoliyatining samaradorligiga erishiladi. Shu nuqtai nazardan, tizimni boshqarish samaradorligini baholash boʻyicha usul va uslublarni ishlab chiqish bugungi kunda asosiy masalalardan hisoblanadi.

Transport tizimini boshqarish samaradorligini baholash boʻyicha besh bosqichli algoritmning mazmuniy tavsiflari bajarilayotgan funksiyalarning murakkabligi va ketma-ketligiga koʻra baholash obʼektiga adekvat (muvofig) boʻlishi talab etiladi. Oʻz navbatida, transport-logistika tizimini boshqarish samaradorligini baholash obʼektlarini tanlash va uning natijalari kim uchun moʻljallanganligi, qanday maqsadda bajarilayotganligi bilan bogʻliq boʻladi.

Temir yoʻlining ham koʻpgina afzalliklari bor va mazkur transport turining oʻziga xosligi quyidagilardan iborat: yoqilgʻining tejamkorligi, oʻrta va uzoq masofaga yuk tashishning nisbatan past narxi; katta masofalarga yetkazishning yuqori tezligi; iqlim sharoitlari taʼsiri darajasining pastligi; maʼlumotlarning tezligi va izchilligi.

Temir yoʻl transporti, avtomobil transportiga nisbatan yuklarga kam miqdorda shikast yetkazishi bilan farqlanadi.

Xulosa va takliflar

Fikrimizcha, transport tizimini boshqarish samaradorligini baholashda boshqarish samaradorligi koʻrsatkichlarini uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

– transport tizimi faoliyatining yakuniy natijalari va boshqarish xarajatlari orqali ifodalanadigan, boshqarish tizimi samaradorligini tavsiflab beradigan koʻrsatkichlar guruhi;

– boshqaruv faoliyatining mohiyati va tashkil etilishini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar guruhi, i shu jumladan, boshqarish faoliyatining bevosita natijalari va xarajatlari. Unga boshqarish apparatining unumdorlik, tejamkorlik, moslashuvchanlik, operativlik, ishonchlik kabi tavsiflari kiradi;

– tashkiliy tuzilmaning rasionalliligi va uning texnik-tashkiliy darajasini tavsiflab beradigan ko‘rsatkichlar guruhi. Tuzilmaviy tavsiflar qatoriga boshqarish tizimining bo‘g‘iniligi, boshqarish funksiyalarining markazlashtirilish darajasi, boshqariluvchanlikning qabul qilingan me‘yorlari, huquq va mas‘uliyat taqsimlanishining muvozanatlanganligi kabilar kiradi.

1. Mamlakatimizda iqtisodiyot sohaslarining transport sohasi tomonidan tashilgan yuklari hajmi tahlil qilinib, transport turlari o‘rtasida kuchayib borayotgan raqobatni hisobgaolgan holda temir yo‘l transportining boshqa transport turlariga nisbatan uning raqobatli imkoniyatlari, texnik foydalanish va iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uning afzallik va kamchiliklari tasniflandi, integrasiyalashgan transport tizimini samarali boshqarish bo‘yicha vazifalari ko‘rsatib berildi. Mazkur vazifalarning amalgaoshirilishi rivojlanish indeksleri bo‘yicha mamlakat transport tarmog‘i reytingini dunyo miqyosida yuqori pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

2. Umuman, mamlakat transport tizimi to‘g‘risida fikr yuritganda, dastavval tizimning holatiga baho berish muhim. Chunki jahonda mukammal darajadaga yetgan transport tizimlari, shuningdek mukammal bo‘lmagan, yaxshi ishlamaydigan transport tizimlari ham mavjud.

3. Mamlakat transport tizimi ham o‘ziga xos tizim hisoblanib, tizimning faol hamda nafaol elementlari mavjud, qolaversa davrlar osha ushbu tizim faoliyati yomonlashib borayotganligini ko‘rish mumkin (keyingi paragraflarda buning isboti keltiriladi).

4. Aynan shu kabi o‘ziga xos transport tizimini baholash alohida uslubiy yondashuvni taqozo etadi. Yuqorida qayd etilgan baholash indikatorlari turli tadqiqot institutlari, olimlari va soha mutaxassisleri fikrlari asosida mualliflik ishlanmalari hisoblanib, mazkur metodika birinchi bor tizimga solingan. Uning yordamida mintaqa transport tizimini doimiy monitoring qilib borilishi tizimdagi o‘zgarish tendensiyalarini kuzatish va tegishli boshqaruv qarorlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Ma‘lumki, har qanday davlat tomonidan transport kommunikatsiyalar tizimini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan strategik dastur mazkur mamlakatning transport sohasidagi tashqi siyosiy faoliyati bilan chambcharchas bog‘liq bo‘lib, uni amalga oshirishda, qo‘shni davlatlarning, ya‘ni muayyan mintaqa mamlakatlarining ushbu sohada olib borayotgan siyosati yoki ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan transport strategiyalari katta rol o‘ynaydi. Buning ikkita asosiy sababi mavjud:

– birinchidan, muayyan davlatning transport tizimi, unga chegaradosh bo‘lgan mamlakatlar kommunikatsiyalari bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lib, uni rivojlantirish mazkur mamlakatlar o‘rtasida hamkorlikni taqozo etadi.

– ikkinchidan, transport kommunikatsiyalarining mamlakatlar iqtisodiyotida tutgan o‘rni nafaqat davlatlarning ichki yo‘lovchi va yuk tashuvini, balki xalqaro yo‘lovchi va yuk tashuvini ta‘minlash bilan ham belgilanadi. Xalqaro transport tashuvlari esa turli davlatlarning milliy tashuvchilari xizmati orqali amalga oshiriladi, buning uchun ular o‘z navbatida ayrim davlatlar transport tizimiga tegishli transport tarmoqlari (temir yo‘llar, avtomobil va havo yo‘llari) va transport uzellari (dengiz va daryo portlari, aeroportlar, temir yo‘l bekatlari, avtobekatlari, yuk va yo‘lovchi terminallari)dan foydalanadilar.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, mamlakat transport kommunikatsiyalar tizimini rivojlantirish avvalambor, mazkur mamlakatning ushbu sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik dasturlarini muvofiqlashtirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Золотогоров В.Г. Экономический словарь/ В.Г.Золотогоров, Г.Ф. Кузнецова, М.Ю. Науч. Ред. А.И.Горина.-Минск: Наука и техника, 1983.-316 с.
2. Пикулькин А.В. система государственного управления: учебник/ А.В. Пикулькин; под ред. Т.Г. Морозовой.-М.: ЮНИТИ, 1997.-325с.
3. Корная Я. Честность и доверие в переходной экономике. // Вопросы экономики-2003.-№9.-С.4-7.
4. Ясин Е.Г. Модернизация экономики и система ценностей.// Вопросы экономики-2003.-№4.-С.25-30.
5. Аганбегян Л.Г. Управление и эффективность.-М.: “Экономика”, 1981.-71 с.
6. Аралбаева Ф.З., Петрова Е.В. Оценка эффективности от возможного устранения ущерба при реализации экономической политики государства на уровне региона// “Вестник ОГУ” №8август 2006. С165-169.
7. Рудьман Я.В. Эффективность управления предприятием [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://conference>.
8. Коврижных И.В. Анализ и оценки эффективности управления в организации / И.В. Коврижных. – Барнул: АФ СибАГС, 2016. – 86с.
9. Евневич М.А. Эффективность аппарата управления и его организационной структуры / М.А.Евневич // Top-Manager. – 2016. - № 15. – С.7 – 9.
10. Ковалишина Г.В. Системный подход в оценке эффективности управления фирмой. – Top-Manager. – 2014. - № 15. – С.7-11.

11. Fayzullayev J.S. Transport tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil.

12. Оценка эффективности управления экономикой (Коллектив авторов под ред. д.э.н., проф. Ш.Н. Зайнуддинов). Монография.-Т.: ТГЭУ. 2003. С.6.

13. Zamonaviy menejment: nazariyasi va amaliyoti/ D.N. Rahimova va boshq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2009. 792-b.

14. Филина В.Н. Современные подходы к оценке эффективности транспортных проектов // Проблемы прогнозирования, 2020, № 2

15. Taylor, F. The Principles of Scientific Management. New York and London. Harper & Brothers Publishers, 1911. 77 стр.